

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

HOJIYEVA NAFOSATXON ILHOM QIZI

**HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA AJRATISH HODISASINING GAPNI
SEMANTIK-SINTAKTIK MURAKKABLASHTIRISH XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Hojiyeva Nafosatxon Ilhom qizi

Hozirgi zamon nemis tilida ajratish hodisasining gapni semantik-sintaktik murakkablashtirish xususiyatlari 3

Хожиева Нафосатхон Илхом кизи

Особенности семантико-синтаксического осложнения предложения явлением обособления в современном немецком языке. 23

Hojiyeva Nafosatkxon Ilhom kizi

The features of semantic-syntactic complication of a sentence caused by the phenomenon of separation in contemporary German 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 52

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

HOJIYEVA NAFOSATXON ILHOM QIZI

**HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA AJRATISH HODISASINING GAPNI
SEMANTIK-SINTAKTIK MURAKKABLASHTIRISH XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3106 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchi.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Begmatov Muxtor Begmatovich**
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ro'ziyev Yarash Bozorovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "19" mart 2026-yil soat 12⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62098 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "3" mart kuni tarqatildi.
(2026-yil "3" mart daqi № 13 -raqamli reestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida gapning tuzilishi va semantik jihatdan murakkabligi tadqiqi turli tillar sintaksisini o'rganish sohasidagi dolzarb muammolardan biridir. Grammatik tomondan gaplarning ikki xil tuzilish turiga – sodda gaplar va murakkab gaplarga bo'linishi hamda barcha tuzilma turlarini to'liq hisobga olinmasligi va ularni faqat ushbu ikki tur doirasida ko'rib chiqish qiyinchiliklari tilshunoslar tomonidan uzoq vaqtdan beri ta'kidlab kelingan va “murakkab gap” (gapning murakkablashuvi) atamasini joriy qilishga sabab bo'lgan. Ushbu tushuncha ostida odatda ajratilgan bo'laklar, teng bo'laklar, kirish so'zlar, undalmalar mavjud bo'lgan gaplar tushuniladi va ular go'yo sodda gapdan murakkab gapga o'tuvchi oraliq turini ifodalaydi. Aynan shu oraliq turda uchraydigan o'zgarishlarni tasniflash ushbu ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo miqyosida tilshunoslikka singib ketgan “bitta sodda gapda bir nechta propozitsiyalar (bir grammatik predikat ostida bir nechta semantik predikatlar) bo'lishi mumkin” degan tezis sababli, gaplarni faqat ikki tuzilish turiga ajratishning yetarli emasligi yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, “murakkab gap”, “gapning murakkablashuvi” tushunchasi kengayib, hozirda faqat sintaktik jihatdan murakkablashgan gaplarni emas, balki sintaktik jihatdan sodda bo'lsa-da, semantik jihatdan murakkab gaplarni ham qamrab olmoqda. Bu esa “murakkab gap” tushunchasini ham semantik, ham sintaktik jihatdan o'rganish zaruratini tug'dirmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, tilshunoslikda gapning murakkablik muammosini talqin qilish ajratish hodisasini yangi yondashuvda o'rganishga, gap tuzilmasining sintaktik va semantik murakkablashishidagi rolini tizimli ko'rib chiqish imkonini beradi. Zero « ilm-fan va ma'rifat nafaqat yoshlarning, balki butun jamiyatimizning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega»¹. Ko'p yillar davomida nemis tili materiali asosida ajratish va parsellyatsiya hodisalari o'rganilib, ushbu hodisalar bir turga mansubligi, xususan, gapning sintaktik va semantik murakkablashuvidagi roli nuqtai nazaridan bir xilligini ko'rsatdi, bu esa, parsellyatsiyalangan bo'laklarga ega bo'lgan bunday gaplarni ham murakkab gaplar deb hisoblashimizga asos bo'ladi. Tilning rivojlanish tendensiyalarini tavsiflash nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi, zero, u ijtimoiy-madaniy muhitda dolzarb masalalarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha tizimli chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori va boshqa me'yoriy-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi // <https://review.uz/uz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzиеvning-olij-mazlisga-murojaatnomasi>

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ajratish hodisasini o'rganish, sintaksisda muhim o'rin tutadigan lingvistik hodisadir. Mazkur masala bo'yicha dunyoning ko'plab tillarida ilmiy tadqiqot ishlarining amalga oshirilgani tilshunoslikda ajratish hodisasining umumiy xususiyatlari va uning turli tillardagi ifodalanish shakllarini chuqur o'rganishning ahamiyatini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar, asosan, ajratilgan bo'laklarning sintaktik tuzilishi, grammatik xususiyatlari, va ularning ma'no ifodalashdagi o'rnini bilan qiziqib kelganlar. Xususan, nemis tilshunoslaridan S.L. Faynshtayn, E.Drax, K.Bust, H.Altmann, P.Auer, S.Uman, V.Frey, G.Tsifonun, L.Hoffmann, B.Shtekker, G.Shtarke, V.Schnayder² kabi olimlar nemis tilidagi ajratish hodisasini o'rganib, ajratish hodisasi, uning grammatik ifodalanishi va stilistik funksiyalariga katta e'tibor qaratishgan. Buning natijasida, tilshunoslikda ajratish hodisasining o'ziga xos xususiyatlari va uning tildagi ifodalari haqida muhim ilmiy tushunchalar shakllangan.

Ajratish hodisasini o'rganish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar MDH mamlakatlari, ayniqsa, rus tilshunoslari asarlarida mazkur muammoni o'rganishning turli yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan. Jumladan, P.D.Bogdanov, V.V.Danilov, A.V.Zatoplyayev³ ajratilgan bo'laklarning grammatik va sintaktik xususiyatlarini, M.Z.Ilkinova⁴ ajratish hodisasining morfologik va sintaktik jihatlarini, N.I.Ilminskaya⁵ ajratilgan bo'laklarning stilistik roli va ularning ifoda tizimidagi

² Файнштейн С.Л. Обособление имени прилагательного и причастия в немецком языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1954. –15 с.; Altmann H. Formen der Herausstellung im Deutschen: Rechtsversetzung, Linksversetzung, Freies Thema und verwandte Konstruktionen // Linguistische Arbeiten. – Tübingen: Niemeyer. 1981. – 106 S.; Auer P. Vom Ende deutscher Sätze// In: Zeitschrift für Germanistische Linguistik 19, 1991. – S.139-157.; Boost K. Neue Untersuchung zum Wesen und zur Struktur des deutschen Satzes// Deutsche Akademie der Wissenschaften zu Berlin. Veröffentlichungen des Instituts für deutsche Sprache und Literatur. – München, 1955. – S. 375; Drach E. Grundgedanken der deutschen Satzlehre. 4. unveränderte. Aufl. – Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft, 1963. – S. 98; Frey W. Zur Syntax der linken Peripherie im Deutschen. – Göteborger, 2005. – S 147-171; Schneider W. Stilistische deutsche Grammatik. Die Stilwerte der Wortarten, der Wortstellung und des Satzes. – 3.Aufl. – Freiburg/Br., Basel etc. – Herde, 1963. –380 S.; Starke G. Ausrahmung oder Nachtrag? Ein Beitrag zur Begriffsbestimmung von Erscheinungen der Auflockerung im modernen deutschen Satzbau // Sprachpflege 1. 1965. – S. 7-12; Uhmans S. Das Mittelfeld im Gespräch // In: Reis, Marga (Hrsg.): Wortstellung und Informationsstruktur. – Tübingen: Niemeyer, 1993. – S. 313-354; Zifonun G., Hoffmann L., Stecker B. Grammatik der deutschen Sprache. Bd 1 u. 2. – Berlin: de Gruyter. 1997. – S. 1671.

³ Богданов П.Д. Обособленные члены предложения в современном русском языке. Учебное пособие по спецкурсу. – Орджоникидзе: Североосетинский гос. ун-т, 1977. – 277 с.; Данилов В.В. Обособленные причастия // Русский язык в школе. – 1937. №7. – С. 135-145; Затопляев А.В. Обособленные определения и приложения // Учёные записки Свердловск/ пед. ин-та. – Свердловск, 1955. – С.3-27.

⁴ Илькинова М.З. Обособленные второстепенные члены предложения в современных мордовских (мокшанском и эрзянском) языках. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Тарту, 1977. – 18 с.; Илькинова М.З. Обособленные обстоятельства в современных мордовских языках // Вопросы мордовского языкознания. Труды МНИИЯ-ЛИЭ, Вып. 36. 1969. – С. 56-62.

⁵ Ильминская Н.И. Обособленные обороты со значением добавочного сообщения в разных стилях современного русского языка // Вопросы теории и методики изучения русского языка. – Саратов. 1965. – 125 с.

oʻrnini, Y.V.Krotevich, M.G.Ovanova, P.N.Perevoshikov⁶ ajratilgan boʻlaklarining sintaktik funksiyalarini, A.G. Rudnev⁷ ajratilgan boʻlaklarning grammatik ifodasi va ularning funksiyalarini, Ye.V.Urison, A.I.Fetisov⁸ ajratish hodisasining semantik va stilistik jihatlarini va ularning tilshunoslikda qoʻllanilishini, V.I.Furashov, M.M.Chernisheva⁹ ajratilgan boʻlaklarining maʼno va sintaksisdagi oʻzgarishlarini, M.E.Khanin, O.V.Chetverikova¹⁰ ajratilgan boʻlaklarining turli tillardagi qoʻllanilishi va ularning oʻziga xos xususiyatlarini, A.S.Agelyarova, A.S.Jitnikovskaya, K.L.Petrovskayalar¹¹ ajratish hodisasining semantik va sintaktik xususiyatlarini ingliz tili misolida tadqiq qilishgan.

Mamlakatimiz olimlari ham ajratish hodisasi va uning sintaktik xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Jumladan, oʻzbek tilshunoslaridan Gʻ.Abdurahmonov, D.Ashurova, F.Ubayeva, H.Boltaboyeva, A.Bushuy, S.Ziyaeva, B.Tursunov, A.Mambetniyazova hamda O.Jumayevlar¹² ajratish hodisasini oʻrganishga katta hissa qoʻshganlar. Ushbu olimlar oʻz ishlarida ajratish hodisasining sintaktik va stilistik jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Ular tildagi boʻlaklar orasidagi aloqalar va ajratishning grammatik va semantik xususiyatlarini oʻrganish orqali, ajratish hodisasining tilshunoslikdagi oʻrnini aniqlashga harakat

⁶ Кротевич Е.В. Обособление второстепенных членов предложения в современном русском языке. – Алма-Ата, 1941. – 263 с.; Ованова М.Г. Обособленное приложение в современном русском языке // Русский язык в школе, 1959. – № 6. – С. 69-76; Перевошиков П.Н. К вопросу обособления членов предложения в удмуртском языке, выраженных деепричастными оборотами // Ученые записки Удмурдского НИИ, Вып. 19. – Ижевск, 1959. – 127 с.

⁷ Руднев А.Г. Обособленные члены предложения, функции и способы их грамматического выражения в современном русском литературном языке. – Л., 1947. – С. 36-38.

⁸ Урысон Е.В. Обособление как средство смыслового подчеркивания // Вопросы языкознания. 1990. - № 4. – С. 35-45; Фетисов А.И. Обособленное обстоятельство как стилистическое средство / К вопросу о синтаксической синонимике // Русский язык в школе. – 1964. – №4. – С. 92-95.

⁹ Фурашов В.И. Обособленные определения с обстоятельственными оттенками значения // Русский язык в школе. 1965ю – №6. – С. 80-83; Фурашов В.И. К проблеме обособления дополнений // Русский язык в школе. 1985. – №1. – С. 81-86 с. Фурашов В.И., Чернышева М.М. Субъективная модальность и обособление // Русский язык в школе. 1983. – № 1. – С. 68-75.

¹⁰ Ханин М.Е. К вопросу о свойствах обособленных определений в современном русском языке. // Ученые записки Гомельского пединститута. Вып. 7. – Минск, 1958. – С. 143-160; Четверикова О.В. Обособленные предложение и средства его включения в состав предложения. Рук. дисс... канд. филол. наук. – Севастополь, 1997. – 193 с.

¹¹ Агельярова А.С. Функционирование обособленного члена предложения на уровне текста (на материале англоязычной художественной литературы) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. № 5.4.3. – Тамбов: Грамота, 2017. – С. 49-52; Житникова А.С. Семантические особенности обособленного определения в современном английском языке. Вестник Российского государственного гуманитарного университета. Филологические науки. Языкознание. №8. – М.: РГГУ, 2012. – С. 106 -112; Петровская К.Л. Обособления второстепенных членов предложения в современном английском языке. – Л.: Наука, 1953. – 235 с.

¹² Абдурахмонов Ф. Ажратилган иккинчи даражали бўлақлар. – Т., ЎзФА, 1995. –137 б.; Ашурова Д.У., Убаева Ф., Болтабоева Х. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлақлари. – Т., Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашриёти, 1962. – 180 б.; Бушуй А. М., Зияева С. Ажратилган сўз бирикмаси немис тили синтактик сатҳда деривацион ходиса сифатида // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – Самарқанд, 2004. - №3(12). – Б. 9-19; Зияева С. А. Обособление в синтаксисе немецкого языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2006. – 25 с. Турсунов Б.Т. Присоединение и парцелляция как единые речевые конструкции синтактико-стилистической категории // Хорижий филология: тил, таълим, адабиёт. – Самарқанд, 2001. – №1. – 39-47 б.; Мамбетниязова А. Х. Ҳозирги замон немис тилида тўлдирувчиларнинг ажратилган бўлақ сифатида бажариб келадиган коммуникатив-прагматик функциялари. Фил. фанлари бўйича фалсафа док. (PhD)... дисс. – Самарқанд, 2022. – 160-б.; Jumayev O.Q.Ega vazifasidagi ajratilgan boʻlaklarning sintaktik-semantik va kommunikativ-stilistik xususiyatlari (nemis tili misolida): Fil... fanlari boʻyicha falsafa dok (PhD)... diss. – Samarqand, 2023, 157 b.

qilgan. Ularning asarlarida ajratish bo‘laklarining tuzilishi, ularning gapdagi o‘rni va roli, shuningdek, ajratish jarayonining til tizimiga ta’siri keng yoritilgan. Ajratish hodisasi turli tillarda, jumladan, o‘zbek va nemis tillarida qanday amalga oshirilishini o‘rganish, tilni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Shuningdek, bu asarlar ajratishning stilistik, semantik va sintaktik jihatlari bo‘yicha muhim ilmiy ma’lumotlar taqdim etadi.

Bugungacha olib borilgan tadqiqotlarda ajratilgan bo‘laklarning struktural guruhlari, intonatsion tavsifi va ba’zi sintaktik xususiyatlari o‘rganilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ajratish hodisasining gapni semantik-sintaktik murakkablashtirish xususiyatlari hozirgi kungacha alohida o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu mavzu monografik darajada tadqiq etishni talab qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi zamon nemis tilida ajratish hodisasining gapni semantik-sintaktik murakkablashtirish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

nemis tilshunosligida ajratish hodisasining o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, bu hodisaning tilshunoslikda qanday tasniflanishini tahlil qilish orqali gapni semantik-sintaktik murakkablashtirish xususiyatlarini aniqlash;

hozirgi zamon nemis tilida gapni murakkablashtiruvchi vositalar va qurilmalar, jumladan, ajratilgan bo‘laklar va ularning sintaktik va semantik ahamiyati mavjudligini dalillash;

hozirgi zamon nemis tilida gapni murakkablashtiruvchi struktur vositalarini tahlil qilish va ular yordamida gap tuzilishining qay tartibda o‘zgarishini va sintaktik xususiyatlarini ochib berish;

hozirgi zamon nemis tilida ajratish hodisasining semantik jihatlari, jumladan, ajratilgan bo‘laklarning gapdagi kommunikativ maqsad va funksiyalarini o‘rganish orqali gapni murakkablashtirishning semantik va kommunikativ xususiyatlarga ega bo‘lishi isbotlash.

Tadqiqotning obyektini sifatida nemis badiiy asarlaridan olingan misollarda ajratish hodisasining gapni semantik-sintaktik murakkablashtirish xususiyatlari olingan.

Tadqiqotning predmetini hozirgi zamon nemis tilida ajratish hodisasining gapni semantik-sintaktik murakkablashtirish xususiyatlarini ochib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot obyektini, predmetini, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ishda tavsifiy, sintaktik, semantik, stilistik, qiyosiy, statistik, transformatsion tahlil kabi lingvistik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nemis tilshunosligida ajratish hodisasining lingvistik maqomi va voqealanishi, shuningdek, uning semantik-pragmatik hamda struktur-sintaktik mexanizm sifatidagi faoliyatini ilmiy-nazariy tizimlashtirilish asosida gapni semantik-sintaktik jihatdan murakkablashtirishga xos xususiyatlar aniqlangan;

hozirgi zamon nemis tilida gapni murakkablashtiruvchi lisoniy vositalar va qurilmalar, jumladan, ajratilgan bo‘laklar va ularning sintaktik hamda semantik ahamiyati, mazkur struktur vositalarning funksional qo‘llanishi orqali gapning sintaktik tashkilida yuz beradigan transformatsiyalar va kengayish jarayonlari badiiy asarlardan olingan misollar vositasida tizimli ravishda yoritilgan;

hozirgi zamon nemis tilida badiiy matnlardan keltirilgan gaplarni ajratish hodisasi, parsellyatsiya va ilova hodisasi kabi gapni murakkablashtiruvchi struktur vositalar yordamida asoslanishi, ushbu gaplar tuzilishining o‘zgarishi hamda ajratish hodisasining parsellyatsiya va ilova konstruksiyalari bilan o‘zaro korrelyatsiyasi ochib berilgan;

hozirgi zamon nemis tilida ajratish hodisasining diskursiv-pragmatik funksiyalari aniqlanib, ularning ma’lumotni ta’kidlash, axborotning aktual bo‘linishi (Aktualisierung der Satzglieder), yangilik kiritish, emotsional ohang yaratish va kommunikativ dinamika jarayonidagi ishtiroki asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ajratish hodisasining gapni semantik-sintaktik murakkablashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi va tilshunoslik, nazariy grammatika, stilistika, leksikologiya kabi fanlardan yaratiladigan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga yordam berishi asoslangan;

ajratish hodisasining gapni semantik-sintaktik murakkablashtirish xususiyatlariga mos ravishda, ajratilgan gap bo‘laklarining kommunikativ-pragmatik funksiyalarini ilmiy talqin qilish metodikasi ishlab chiqilgan;

ajratilgan gap bo‘laklarining gap tarkibini murakkablashtiruvchi va semantik-sintaktik ma’nosini konkretlashtiruvchi xususiyatlari tahlil qilingan;

ajratilgan bo‘laklar o‘ziga xos xususiyatlarining muloqot jarayonida qanday foydalanilishi va o‘rganilishining ishonchli manba bo‘lib xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, muammoning aniq shakllantirilgani, to‘plangan materiallar tahlilining ilmiy va metodologik jihatdan asoslanganligi, nazariy xulosa va natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, chiqarilgan xulosalarning qat’iyligi, tadqiqot materialining ishonchli manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta’minlanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ajratilgan bo‘laklarning semantik-sintaktik tahlili natijasida yuzaga kelgan xulosalar nazariy grammatika, stilistika va tarjima nazariyasi fanlarining tegishli bo‘limlarini boyitishga, to‘ldirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ajratish hodisasini boshqa stilistik hodisalarga, jumladan, ilova hodisasiga, ellipsisga qiyoslab o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikda o‘rganish uchun nazariy asos bo‘ladi. Nemis tiliga oid grammatika darsliklarida sodda va qo‘shma gaplar sintaksisi bilan bir qatorda murakkab gap sintaksisi ham o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi. German tillari sintaksisini nazariy bilimlar bilan boyitishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida nazariy grammatika, stilistika hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, matn tahlili bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishda, tadqiqot mavzusi bo'yicha bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiyalarini yozishda, nemis tili bo'yicha mutaxassislarining nazariy va amaliy bilimlarini boyitishga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalar, ishlanma hamda takliflar asosida:

nemis tilshunosligida ajratish hodisasining lingvistik maqomi va voqealanishi, shuningdek uning ilmiy-nazariy tizimlashtirilishi asosida gapni semantik-sintaktik jihatdan murakkablashtirish xususiyatlariga doir xulosa va yechimlardan O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi KA-3-007-raqamli "O'zbekistonda fan va ta'lim integratsiyalashuvi jarayonining ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, konseptual falsafiy muammolari tahlili" mavzusidagi amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-maydagi 04/11-5765-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada nemis tilshunosligida ajratish hodisasining o'rnini va tasnifi, uning gapni semantik-sintaktik murakkablashtirishdagi roli o'rganilib, ushbu hodisa nemis tilining struktur va semantik xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam berishi, ajratilgan bo'laklarning gapni murakkablashtiruvchi vosita sifatidagi sintaktik va semantik ahamiyati ko'rsatilgan hamda ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalarini tahlil qilish metodikasi ishlab chiqilgan;

hozirgi zamon nemis tilida gapni murakkablashtiruvchi lisoniy vositalar va qurilmalar, jumladan, ajratilgan bo'laklar va ularning sintaktik hamda semantik ahamiyati, mazkur struktur vositalarning funksional qo'llanishi orqali gapning sintaktik tashkilida yuz beradigan transformatsiyalar va kengayish jarayonlari badiiy asarlardan olingan misollar vositasida tizimli ravishda dalillanishiga doir mulohazalardan Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 29-aprel kuni "Samarqand" radiokanalida efirga uzatilgan "Kun mavzusi" eshittirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 2-maydagi 01-07/176-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nemis tilida ajratish hodisasi gapni murakkablashtiruvchi struktur vosita sifatida tahlil qilinib, uning sintaktik, semantik va kommunikativ xususiyatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari ajratilgan bo'laklar yordamida gap tuzilishining murakkablashuvi va ifoda aniqligining oshishiga xizmat qilishini ko'rsatgan. Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik fanining rivojlanishiga hissa qo'shishi, xususan, tillarning sintaktik va semantik o'ziga xosliklarini chuqurroq tushunishga yordam berishi haqidagi ilmiy xulosalar ilmiy izlanish olib borayotgan tilshunoslar va adabiyotshunoslar uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilgan;

hozirgi zamon nemis tilida badiiy matnlardan keltirilgan gaplarni ajratish hodisasi, parsellyatsiya va ilova hodisasi kabi gapni murakkablashtiruvchi struktur vositalar yordamida asoslanishi orqali ushbu gaplar tuzilishining o'zgarishi hamda ajratish hodisasining parsellyatsiya va ilova konstruksiyalari bilan o'zaro korrelyatsiyasini ochib berishiga doir mulohazalardan Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan, Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi va Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh

davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 2-maydagi 1340/02-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada nemis tilidagi ajratilgan bo‘laklar, mustaqil sintaktik birliklar kabi ajratish konstruksiyalari yordamida murakkab gaplarni shakllantirish va ularning kommunikativ vazifalarini to‘g‘ri anglashni o‘rgatish, gap ichida ajratilgan strukturaviy birliklarning semantik yukini oson va aniq yetkazish uchun metodik materiallar ishlab chiqish, nemis tilining hozirgi zamondagi sintaktik tendensiyalari (masalan, ajratish vositasida matnning uslubiy boyitilishi) asosida tilshunoslik savodxonligini oshirish, o‘quv kurslarida nemis tilida matn tuzilmasini murakkablashtirish mexanizmlarini o‘rgatishga qaratilgan yangi dars modullarini ishlab chiqish imkonini bergan;

hozirgi zamon nemis tilida ajratish hodisasining diskursiv-pragmatik funksiyalari aniqlanib, ularning ma’lumotni ta’kidlash, axborotning aktual bo‘linishi (Aktualisierung der Satzglieder), yangilik kiritish, emotsional ohang yaratish va kommunikativ dinamika jarayonidagi ishtirokiga oid mulohazalardan Alliance Samarkand (Alliance Samarkand NTT ning 23-may 2025-yildagi №4-sonli ma’lumotnomasi) tomonidan amalga oshirilayotgan nemis tili ta’limi loyihalarida foydalanilgan. Natijada gapni murakkablashtiruvchi sintaktik qurilmalar, ajratilgan bo‘laklarning kommunikativ maqsad va funksiyalari, semantik va pragmatik xususiyatlari til kurslari metodikasi va nazariy modullarini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 3 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Hozirgi zamon tilshunosligida ajratish hodisasining nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida hozirgi zamon nemis tilida ajratish hodisasining lingvistik tabiati, uning sintaktik birliklar doirasidagi o‘rni va gapni murakkablashtirishdagi vosita sifatidagi ahamiyati yoritiladi.

Shuningdek, ajratish hodisasining sodda gapni murakkablashtirishdagi usullari va vositalari hamda gapning struktur-semantik xususiyatlariga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida ajratish hodisasi til tizimini chuqurroq anglash va muloqot jarayonini yaxshiroq tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hodisa gapning semantik va sintaktik tuzilishini murakkablashtiradi, ifoda vositalarini boyitadi va tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, nemis tilida ajratish gap tuzilmasini kengaytirish, ma'no aloqalarini aniqlashtirish hamda stilistik va pragmatik ta'sirni kuchaytirish vositasi sifatida faol qo'llaniladi.

Ajratish hodisasi, ayniqsa, murakkab gaplar tuzilishini shakllantirishda, shuningdek, gaplarning o'zaro bog'lanishida muhim rol o'ynaydi. Nemis tili va boshqa german tillari o'rtasidagi farqlarni aniqlash, ajratish hodisasining xilma-xilligi va uning tilshunoslikda qanday ishlatilishini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, ajratish hodisasi stilistika, pragmatika va grammatika sohalariidagi ilmiy izlanishlarga asos bo'lib xizmat qiladi.

Sintaktik birliklarning tavsifi tilning ichki tuzilishini tushunishda muhim o'rin tutadi. Sintaksis so'z va iboralarning tartibi hamda bog'lanishini o'rganadi va tilshunoslikda asosiy tahlil vositalaridan biridir. Gapning turli bo'laklari va ularning aloqalari tilning aniqligi va mantiqiyiligini ta'minlaydi.

Gap tuzilmasidagi bo'laklar o'zaro iyerarxik bog'liq bo'lib, bu bog'lanishlar nutqning chiziqli qurilishiga asos bo'ladi. L.Tenyer ta'kidlaganidek, ushbu tizim gap tarkibidagi birliklar o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi¹³.

Gap – mustaqil fikr ifodalovchi birlik bo'lib, uning tuzilishini segmentatsiya orqali tahlil qilish tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy grammatika gapni asosiy va yordamchi bo'laklarga ajratish orqali tahlil qilgan. Ammo bu usul gap strukturasi iyerarxiyasini to'liq aks ettirmasligi sababli tanqid qilingan. Keyinchalik sintaksik, bevosita tarkibiy qismlar, zanjirli va tagmem tahlili kabi yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Tilshunos I.I.Meshshaninov gapni tashqi (butun gapga taalluqli) va ichki (gap bo'laklariga oid) bo'linishga ajratdi hamda bog'langan bo'laklar tushunchasini taklif qildi¹⁴. I.P.Raspopov esa, tashqi bo'linishda gap tuzilmasining semantik-frazeologik omillarga bog'liqligini ta'kidladi. U "Professor ma'ruza o'qiydi" va "Professor roman o'qiydi" misollari orqali to'ldiruvchi bo'lakning mustaqilligini izohladi¹⁵. Bu jumlar tahlilida iyerarxik tuzilma farqli bo'lib, semantik omillar sintaktik iyerarxiyaga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, sintaktik birliklarni tavsiflash va gap tuzilishini ajratish tilning strukturaviy jihatlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Gap bo'laklari iyerarxiyasini tushunish, ularning o'zaro bog'liqligi va nutqdagi funksiyalarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa, tilni samarali qo'llash va tarjima hamda stilistika kabi sohalarda chuqur tahlil imkonini beradi.

¹³ Tesniere L. Elements de syntaxe structurale. – Paris: Libr. Klincksieck, 1959. – 670 p.

¹⁴ Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи [Электронный ресурс]/ И.И. Мещанинов. - Изд. 2-е. – Л.: Наука, 1978. – 387 с.

¹⁵ Распопов И.П. К вопросу об обособлении / И.П. Распопов // Очерки по теории синтаксиса. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 224 с.

Ajratish hodisasining aqliy faoliyat va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini yanada chuqurlashtirgan holda Vilgelm fon Gumboldt tilni fikr qurish vositasi sifatida ko'rib, ajratish hodisasini haqiqatni ifodalashda muhim deb hisoblaydi. Bu hodisa nafaqat sintaktik strukturani, balki tilning aqliy va ijtimoiy funksiyalarini ham yoritadi. G.V.Kolshanskiy, O.Espersen, A.I.Smirnitskiy va U.Cheyf¹⁶ ajratish orqali ma'no va tushunchalar shakllanishini ta'kidlab, tilni inson tafakkuri va ongining rivojlanishida muhim omil deb baholaydilar. So'z va sintaktik birliklarning ajralishi tafakkurning murakkab jarayonlarini aks ettiradi va tilshunoslikda yangi yondashuvlarga asos bo'ladi.

Ajratishning nutqdagi asosiy maqsadlaridan biri – ma'no ranglarini ajratish, taklifning ajratilgan qismidagi ma'lumotning dolzarbligiga e'tibor qaratishdir. Aynan ajratishning shu jihati ko'plab sintaksistlar tomonidan e'tibordan chetda qoladi. Masalan:

Vielleicht hättest du Anna anrufen lassen, deine ehemalige Lieblingste [102: 46].

Ushbu misoldagi *hättest* komponenti shartlilikni bildiradi, ajratilgan bo'lak – *deine ehemalige Lieblingste* jumlasida esa, qo'shimcha ma'no bilan boyitiladi, bu esa, ta'rifning leksik to'ldirilishini kuchaytiradi.

Ajratish orqali "*deine ehemalige Lieblingste*" so'z birikmasi nafaqat bog'lanishdan ajraladi, balki gapning predikatiga ham ulanadi. Ajratish tufayli bu so'z birikmasi predikat bilan qo'shib, ma'lum bir shartlilik bo'ylab holatni ifodalaydi.

Shunday qilib, biz ajratishni nafaqat sintaktik bog'lanish vositasi sifatida ko'rishimiz mumkin, balki bu predmetga xos xususiyatni belgilash (bo'ysunish) uchun foydalaniladigan vosita va ajratilgan semantik komponentlarni gapning ma'no tuzilishida ajratish vositasi sifatida tushunishimiz mumkin. Ajratishning prosodik va boshqa vositalari bu semantik ajratishni faqat qo'llab-quvvatlaydi. Ajratish yordamida faqat ikkinchi darajali tarkibiy qismlar ko'rsatiladi: gapning predmet tarkibidagi ta'rif yoki predikatdagi holat.

Dissertatsiyaning **“Ajratish hodisasining grammatik mohiyati, kommunikativ yo'nalishlari va semantik-sintaktik munosabatlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida ajratish hodisasining grammatik tabiati, uning kommunikativ pragmatik funksiyalari va gapning struktur-semantik tashkil topishidagi roli tahlil qilinadi. Bobda, shuningdek, ajratilgan gap bo'laklarining bosh bo'laklar bilan o'zaro semantik-sintaktik munosabatlari yoritilib, ajratish hodisasining parsellyatsiya va ilova hodisalaridan farqlanishiga doir nazariy qarashlar va amaliy tahlillar keltiriladi.

Ajratish hodisasi tilshunoslikda sintaktik tuzilmani chuqurroq tushunishga yordam beradigan muhim tushuncha hisoblanadi. Bu hodisa gapdagi bo'laklar o'rtasidagi bog'lanish va ularning kommunikativ funksiyalarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ajratish, nafaqat grammatik, balki kommunikativ nuqtai nazardan

¹⁶ Колшанский Г.В. Грамматическая функция обособления членов предложения. Филологические науки, 1962, I. – С. 31-41; Есперсен О. Философия грамматики. – М.: Изд-во иностр. лит-ры, 1958. – 404 с.; Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка / А.И. Смирницкий. Изд 2-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. – 296 с.; Чейф У.Л. Значение и структура языка. – М.: Прогресс, 1975. – 431 с.

ham gapning maqsadi va mazmunini aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Gap tarkibidagi ajratilgan bo'laklar predikativ va atributiv funksiyalarni aniqlab, tilning semantik boyligini oshiradi va nutq jarayonida samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi.

Ajratish hodisasi tilshunoslikda uzoq tarixga ega bo'lib, ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. A.A.Potebnya¹⁷ gapning intonatsion urg'uli va urg'usiz bo'laklarining qarama-qarshiligini va semantik tafovutlarni birinchi bo'lib ko'rsatgan. A.M.Peshkovskiy¹⁸ esa, "gapning ajratilgan bo'laklari" atamasini kiritgan va ajratilgan bo'laklarning asosiy xususiyatlarini shakllantirgan. G.N.Eyxbaum¹⁹ esa, ajratish hodisasini to'rt yo'nalishda tahlil qilgan: fonetik, sintaktik, mantiqiy-semantik va kommunikativ.

Fonetik yondashuvda, ajratilgan bo'laklarning intonatsion ajratilishi va ularning semantik bog'lanishi ko'rib chiqilgan. Sintaktik yondashuv esa, gapdagi grammatik bog'lanishlarni aniqlashga qaratilgan. Mantiqiy-semantik va kommunikativ yondashuvlar esa, ajratilgan bo'laklarning ma'no aniqligi va kommunikativ yukini oshirishga qaratilgan. Bu yondashuvlar, ajratilgan bo'laklarning semantik va kommunikativ funksiyalarini ochib beradi va gapning maqsadi bilan uyg'unlashadi.

Ta'kidlash joizki sifat bilan ifodalangan alohida xususiyatga ega bo'lgan ajratilgan bo'lakni aniqlash, aniqrog'i, ajratilgan qismni qo'llash sifatida tasniflash birinchi marta A.A.Potebnyaning yuqoridagi asarlarida tasvirlangan va boshqa mualliflarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Ajratilgan bo'lakning boshqa qismlari birinchi bo'lib A.G.Rudnev tomonidan tasniflangan: "obyektiv ma'noga ega bo'lgan so'z; vaziyat, mavzu va predikat mos ravishda boshqa holatni, mavzuni yoki predikatni va hokazolarni tushuntirishi, aniqlashtirishi yoki kuchaytirishi mumkin, gapning bu qismlari, yuqorida ko'rsatilgan funksiyalarda ishlatilgan hollarda, ajratilgan bo'laklar sifatida tasniflanadi²⁰. Bundan tashqari, qo'llanish turkumiga bog'lovchi tuzilmalar ham kiradi, ular gapning aniq bir bo'lagining emas, balki butun gapning aniqlovchisi, tushuntiruvchisi yoki kuchaytiruvchisi sifatida tasniflanadi²¹. Demak, ajratilgan bo'laklar, yuqorida tilga olingan tilshunoslarning fikricha, mazmun jihatidan ham (bajarish funksiyalari xususiyatiga ko'ra), ifodalash usulida ham, nutqning u yoki bu qismiga mansubligida ham, o'zlari bog'langan so'zlarning turkum bog'lanishida ham bir-biridan farq qiladi.

Gap bo'laklari o'rtasidagi aloqalar, asosiy sintaktik munosabatlardan tashqari, nutq darajasida turli kommunikativ funksiyalarni aks ettiruvchi munosabatlar, masalan, tushuntirish, qo'shish va kuchaytirish munosabatlari yuzaga keladi. Bu munosabatlar ko'pincha gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklari va ular bilan sintaktik bog'langan komponentlar o'rtasida o'rnatiladi. Ajratilgan bo'laklar, bir

¹⁷ Потебня, А. А. Из записок по русской грамматике. – М., 1958. – 536 с.

¹⁸ Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Учпедгиз, 1956. – 511 с.

¹⁹ Эйхбаум Г.Н. Обособленные члены предложения в немецком языке. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1974. – 130 с.

²⁰ Руднев, Алексей Георгиевич. Синтаксис осложненного предложения / А. Г. Руднев. – Москва: Учпедгиз, 1959. – 198 с.

²¹ Богомолова О.И. Современный французский язык. – М.: Изд-во литературы на иностр. языках, 1948. – 427 с.; Никонов Б.А. Грамматика португальского языка. – М.: Высшая школа, 1981. – 263 с.

tomondan, asosiy va alohida ta'riflar va holatlar bo'lishini to'xtatib, alohida ko'rsatmalar bilan bir kategoriyaga birlashadi va gapning yangi bo'lagi sifatida qo'llaniladi.

Bunday bo'laklar ajratilmagan ilovalarga o'xshashligini yo'qotib, gapning yangi tarkibiy qismi sifatida ishlatiladi. Tushuntirish, kuchaytirish va qo'shish funksiyalari faqat nutqda paydo bo'lib, ular gap tarkibidagi sintaktik kategoriyalar va so'z turkumlarida yuzaga keladi. Biroq, bu munosabatlar birlamchi sintaktik munosabatlarni o'zgartirmaydi, chunki asosiy sintaktik munosabatlar doimo saqlanadi. Ta'riflar, ko'rsatmalar va holatlar, avvalo, aniqlovchi, izohlovchi va qo'shimcha qilish funksiyalarini bajaradi, tushuntirish, qo'shish va mustahkamlash esa, ikkinchi darajali kommunikativ niyatlar bilan bog'liq ravishda nutqda paydo bo'ladi.

Ajratilgan bo'laklarning kommunikativ ahamiyati gapning maqsadiga qarab farq qiladi. Ular ko'pincha predikativ aloqalarni kuchaytiradi yoki aniqlashtiradi. Shunday qilib, ajratilgan bo'laklar sintaktik funksiyalardan tashqari, kommunikativ jihatdan ham muhim bo'lib, gapning maqsadiga mos ravishda predikativ yoki atributiv funksiyalarni bajaradi.

Ajratilgan segmentlar, intonatsion jihatdan aniqlovchilar va hollar vergul yoki tire bilan ajratiladi, bu esa, german tillarida, ayniqsa nemis tilida, mavzu va obyektlarning intonatsiya va tinish belgilari bilan ajratilishi ularning grammatik bog'lanishini ko'rsatadi. Rus tilida esa, og'zaki nutqda ajratishning tinish belgilariga asoslangan qoidalari har doim intonatsion bo'linishni aks ettirmaydi.

Shunday qilib, ajratishning farqi intonatsion belgilar orqali emas, balki grammatik ko'rinishlar orqali aniqlanadi. Yozma matnda tinish belgilarining roli semantik-grammatik kategoriyalar ajratilishida bo'lsa-da, aslida grammatik ajratish aniq grammatik ko'rinishlarda amalga oshadi. Ajratish hodisasi, keng ma'noda talqin qilinsa, sintaktik yoki kommunikativ maqsadlarda ajratilgan gap bo'laklari mustaqil sintagma sifatida yakkalanishi mumkin. Biroq, bu majburiy ajratish emas, chunki og'zaki nutqda ajratilgan va ajratilmagan sintagma orasidagi farq pauza uzunligi bilan, yozma matnda esa, tinish belgilari bilan belgilanadi.

1. So'zning keng ma'nosida tanlash funksiyasi: obyektning belgisini yoki uning kvalifikatsiya belgisini, harakat yoki holatning belgisini tanlash; yangilash maqsadida ta'kidlash va hokazo, masalan:

Nach Hause fahrend, sumtete sie vor sich hin zwischen Lippen und Zähnen, unhörbar fast, recht unmusikalisch, nachdenklich, vergnügt [105: 125].

2. So'zning ma'nosini yoki gapning boshqa bo'lagining hissiy mazmunini tushuntirish, to'ldirish, kuchaytirish funksiyasi, masalan:

Er sprach zynisch, grimmig, anfeuernd, scherzend, zu der einer, der blonden, feinen Johanna, seiner Liebliche [97: 145].

3. Gapning boshqa bo'lagi uchun birlamchi bo'lgan "begona" grammatik vazifa – bu subyekt va predikat bilan qo'shaloq bog'liqlik bilan bog'langan alohida ta'riflarning qo'shimcha vazifasidir, masalan:

Jamomata hat immer das Frauengewand getragen, die traditionelle wunderschöne japanische Fautentracht, den Kimono [105: 215].

4. Bog'lanish funksiyasi – ajratishning maxsus intonatsiyasi tufayli gapning

uzoqda joylashgan bo‘laklari o‘rtasida sintaktik va mantiqiy aloqa o‘rnatiladi:

Er zeigte seine Zusage, eine Entscheidung, von der er nicht abzubringen ist [944:174].

5. Birlashtiruvchi funksiya, asosiy element atrofida ajratishning maxsus intonatsiyasi tufayli, bo‘ysunuvchi va muvofiqlashtiruvchi birikmalar bilan haddan tashqari yuklangan gap bo‘laklarini birlashtiradi. Masalan:

Sie durften mit solchen ungeheuerlichen Berufsleute, solchen Chemikern, Physikern, Ärzten, Philosophen, Komponisten, Sängern und Dichtern, nicht wie ein Balkanvolk zusammenarbeiten und in seinen engen Grenzen vermehren lassen [104:249].

Yuqorida ko‘rsatilgan funksiyalarning ba‘zilari kommunikativ darajaga (1 va 2 funksiyalar), boshqalari grammatik (sintaktik) darajaga (3, 4 va 5-funksiyalar) tegishli bo‘lsa, oxirgi ikki funksiya va ayniqsa, to‘rtinchisining bog‘lovchi funksiyasi gapning tuzilishi bilan bevosita bog‘liq.

Ajratilgan qo‘shimchalar, tushuntirish vazifasini bajaruvchi tarkibiy qismlar sifatida, ma‘no aniqligi va konkretlashtirishni ta‘minlaydi. Ular gapning asosiy tarkibiy qismini aniqlashtiradi va o‘quvchi yoki tinglovchiga axborotni tushunishni osonlashtiradi. Ajratilgan qo‘shimchalar nafaqat sintaktik, balki semantik jihatdan ham muhim rol o‘ynaydi, tilning ma‘no qatlamini boyitadi va kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.

Professor D.T. Tojiyev²² ajratilgan gap bo‘laklari, ularning grammatik xususiyatlari va bog‘lanish usullari haqida alohida tadqiqotlar olib borgan. Ajratilgan bo‘laklar gapning maqsadi va vazifasini aniqroq ifodalashga yordam beradi. Bu bo‘laklar grammatik va semantik jihatdan murakkab tizimni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Ajratilgan gap bo‘laklarini “kirish so‘zlari” deb atash to‘liq ifodalamaydi; ular “izohlovchi birliklar” sifatida nomlanishi kerak. Izohlovchi birliklar gapda ma‘no aniqligini ta‘minlab, nutqni samarali qiladi. Bunday bo‘laklar turli ma‘no va funksiyalarni ifodalab, ba‘zan noto‘g‘ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtada, izohlovchi birliklar va ajratilgan gap bo‘laklarining struktura va funksiyalarini chuqurroq tahlil qilish muhimdir. Bu tilshunoslikni yanada chuqurroq o‘rganishga imkon beradi va tilning ijtimoiy, psixologik funksiyalarini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega.

Ajratilgan gap bo‘laklari va qo‘shimchalar har doim aniq grammatik ko‘rinishlarda ifodalangan holda ajratiladi. Bu holat tilni jonlantirish va ifodalovchanlikni oshirishga yordam beradi. Shuni ta‘kidlash kerakki, ajratilgan gap bo‘laklari va qo‘shimchalar ba‘zan bitta kategoriya sifatida guruhlanishi noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, ajratish hodisasining asosiy belgisini ajratilgan gap bo‘laklarining o‘ziga xos intonatsiyasi tashkil etadi; ajratilgan gap bo‘laklari bo‘lgan jumlaning ohangi ko‘p jihatdan murakkab jumlaning ohangiga o‘xshaydi. Shuning uchun ajratilgan gap bo‘laklari, jumlaning qolgan qismlaridagi mantiqiy urg‘udan mustaqil ravishda o‘zining mantiqiy urg‘usiga ega bo‘ladi.

²² Точиев Д.Т. Осори мунтахаб. – Душанбе, 2005. – 483 с.

Gapdagi ajratilgan gap bo‘laklari asosan quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. So‘zlar va ifodalar, umumiy ma’noga ega bo‘lib, aniqlanadi va konkretlashtiriladi. Masalan:

Ich schlage den Uferweg ein, der teils schneebedeckt, teils schlammig ist [101:8].

Bu holatda ajratilgan gap bo‘laklari, gapdagi so‘zlarning ma’nosini aniqlashtirib, ularni o‘quvchi yoki tinglovchiga yanada tushunarli qilishga yordam beradi. Gapning umumiy mazmuni ko‘pincha ajratilgan bo‘laklar orqali to‘liqroq, aniqroq va mukammalroq bo‘ladi.

Ajratilgan gap bo‘laklari, gaplarni yanada aniq va tushunarli qilish uchun ishlatiladi. Odatda, bu turdagi ajratilgan bo‘laklar yordamida gapning asosiy ma’nosi yanada kengaytiriladi yoki aniqlashtiriladi, bu esa, o‘quvchiga yoki tinglovchiga so‘zning haqiqiy mazmunini anglashga yordam beradi.

2. Ajratilgan gap bo‘laklari, ularga kengroq ma’no berish uchun, odatdagi gaplarda sinonim sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan:

Das Haus war alt, vor über 100 Jahren gebaut, von außen ein behäbiges, steinernes Gebäude, innen verwinkelt, verwohnt, anheimelnd [101: 25].

Ajratilgan gap bo‘laklari, o‘zida kengroq yoki chuqurroq ma’no olib, sinonim so‘zlar bilan almashtiriladi. Bunday ajratilgan gap bo‘laklari, gapning stilistik qiymatini oshirish uchun ishlatiladi.

Ajratilgan bo‘laklar, sinonim so‘zlar orqali gapning ma’nosini kengaytiradi va o‘quvchiga yanada boyroq ma’lumot yetkazadi. Bu turdagi ajratilgan bo‘laklar, tilni rang-barang qilish va uning ifodaviy kuchini oshirishga yordam beradi.

3. Ajratilgan gap bo‘laklari, tildagi sinonimlarning variantlari bo‘lgan, o‘zlashtirilgan so‘zlar bilan ifodalanadi. Masalan:

Der Begriff Demokratie, ursprünglich aus Griechischen, wird heute weltweit verwendet [106:48].

Bunday ajratilgan gap bo‘laklari, ba’zida boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar orqali ifodalangan bo‘ladi, bu esa, gapga yanada universal va global mazmun beradi.

O‘zlashtirilgan so‘zlar yordamida ajratilgan gap bo‘laklari, gapda ko‘proq universal ma’no va global tushunchalarni ifodalaydi. Bunday ajratilgan bo‘laklar, tilning modernizatsiyasi va global dunyo bilan integratsiyasi jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

4. Arxaik, tarixiy jihatdan cheklangan so‘zlar va so‘z birikmalari turli ajratilgan hol turlarini yoki alohida atamalarni izohlaydi. Bunday ajratilgan tarkibiy qismlar, eski yoki eskirgan so‘zlar yordamida ma’lum bir tarixiy davrni yoki ma’lum bir terminologiyani aniqlashtiradi.

Arxaik va eskirgan so‘zlar yordamida ajratilgan bo‘laklar, o‘quvchiga tarixiy kontekstni yoki eski davrlarning tushunchalarini aniqroq ko‘rsatishga yordam beradi. Bu nafaqat tilning rivojlanishini, balki tarixiy va madaniy merosni tushunishni ham yengillashtiradi.

Demak, yuqorida bildirilgan fikrlar, ilmiy yondashuvlar hamda misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ajratilgan gap bo‘laklari o‘ziga xos semantik va sintaktik funksiyalarni bajaradi. Bu gaplar tilning murakkabligini oshirib, gapdagi ma’no va

strukturaning to'liq ifodalanishiga yordam beradi. Ular gapning bosh bo'lagidan alohida bo'lib, ma'lumotni aniqlashtirish, kengaytirish yoki ifodalashda katta rol o'ynaydi. Bunda gapning ma'nosi yanada boyitilib, o'quvchi yoki tinglovchiga yanada to'liq va aniq axborot yetkaziladi.

